

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR DAVLAT MUZEYINI TASHKIL TOPISHI.

**Tasheva Surayyoxon To'xtabayevna**

*Qurolli Kuchlar davlat muzeyi*

*Katta ilmiy hodimi*

*AIFU magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ozbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyining tashkil topishi, uning vazifalari, maqsadlari haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston Respublikasi, Qurolli Kuchlar, davlat, muzey, harbiy, xizmat, tarixiy, meros, milliy, vatan, markaziy, madaniy.*

Muzeylar ma'naviyat va ma'rifat, ilm o'chog'i sifatida doimo izlanish, rivojlanishni talab etadi. Ularning zahiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Qurolli Kuchlar davlat muzeyida ham o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritayotganligi sababli, muzey bugungi kunda Markaziy Osiyoda yirik harbiy-tarixiy muzeylardan biriga aylangan.

Qurolli Kuchlar davlat muzeyi 1965 yilda Markaziy Ofitserlar uyi (Avvalgi ODO) binosida boshlagan, 1975 yil 25 oktyabr kuni 2- jahon urushida qozonilgan g'alabaning 30 yilligi munosabati bilan uch qavatli yangi binoga ko'chirilgan, 1992 yildan Qurolli Kuchlar Markaziy muzeyi sifatida faoliyatini olib borgan va 2010 yil 25 martdan boshlab, Vazirlar Mahkamasining №54 qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi maqomi berildi. 2010 yilda Qurolli Kuchlar davlat muzeyi qayta rekonstruksiya qilinib, muzey fondi va eksponatlari yanada boyitildi va muzey ekspozitsiyasi yangilandi. 2022 yil muzey binosi joriy va kapital ta'mirdan chiqqan. 2010 yil 12 yanvar sanasida muzey hiebonida muhtasham "Vatanga Qasamed" xaykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur majmuada Vatan oldida o'z burchini sadoqat ila ado etishga shaylangan o'zbek o'g'loning siymosi va uning ortida o'z o'g'liga oq fotiha berib kuzatayotgan Ona timsoli tasvirlangan.

O'zbekistonda madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, milliy, madaniy va ma'naviy merosini asrab – avaylash hamda ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy ahloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Tarixiy merosni asrab – avaylash,

o'rganish va avlodlardan avlodga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo'nalishlardan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, "Ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-ahloq, qadriyatlarning yo'qolishi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda"<sup>1</sup>. Shu maqsadda, xalqimizning tafakkuri hamda ma'naviy duneqarashini rivojlantirish uchun mavjud xalqdar madaniy etnogenezini belgilaydigan ilmiy manbalarni o'rganish va tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

"Oliy o'tmishda O'zbekiston hududida yaratilgan, bugungi kunda jahon mamlakatlari muzeylarida saqlanaetgan ozori atiqalarni o'rganishga alohida qiziqish bildiraetgan olimlardan taniqli yapon arxeologi O'zbekistonimizning do'sti bo'lgan marhum Kato Kyudzo chorak asr davomida Surxondare viloyatining qadimiy Dalvarzintepa qo'rg'oni o'rniда O'zbekiston - Yaponiya qo'shma ekspeditsiyasining rahbarlaridan biri sifatida ish olib borganini minnatdorlik bilan eslaymiz"<sup>2</sup>, – deydi yurtboshimiz.

Zamonaviy jamiyatning ta'lif muassasalarida muzeylarni ta'lif sohasini, salohiyatga ega bo'lgan noeb ijtimoiy instituti sifatida shakllantirishga qiziqish ortib bormoqda. Chunki muzeylar ijtimoiy xotirani saqlash, uni boshqa avlodlarga yetkazish maqsadida tashkil etiladi:

- muzey ashelari va muzey kolleksiyalarini saqlash;
- muzey ashelari va muzey kolleksiyalarini aniqlash hamda to'plash;
- madaniy, ma'rifiy va ta'lif faoliyatini amalga oshirish;
- muzey ashelari va muzey kolleksiyalarini o'rganish;
- muzey ashelari va muzey kolleksiyalarini e'lon qilish.

O'zbekistondagi ilk muzeylar tarixiga qisqacha to'xtasak, Turkiston o'lkasida XIX asrning 2-yarmidan uchta muzey –Toshkentda o'lkashunoslik (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi), Samarqandda (hozirgi O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'at tarixi muzeyi), Farg'onada xalq muzeyi (hozirgi Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi) tashkil etildi. XX asr muzeylar uchun rivojlanish davri sahifalarida qoldi. XXI asrda esa muzeylar uchun yangilanishlar asri bo'libtarixga kirdi.

Masalan: ilmiy – madaniy sayexlik markazlari, arxeologik, etnografik, me'moriy, tabiiy – landshaft, ochiq osmon ostidagi muzeylar yaratish imkoniyatlari oshdi. Va turli sohalarning muzeylari tashkil etila boshladi. 1917 yilgi inqilobiy to'ntarishdan so'ng mutaxasis olimlar tomonidan ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi, muzeylar uchun kolleksiyalarni to'plash ishi joylandi. Jumladan, (1918 yil Toshkentda tashkil topgan O'zbekiston san'ati

<sup>1</sup> Мирзиев Ш.М. Миллий тикланишдан -миллий юксалиш сари. – Тошкент: "O'zbekiston" NMIU, 2020.- 486.

<sup>2</sup> Мирзиев Ш.М. "Янги Ўзбекистон стратегияси". Тошкент-2021, 38-39 бетлар.

muzeyi o‘z faoliyatini boshladi. 1939 yilda O‘zbekiston adabieti muzeyi o‘z kolleksiyalarini adabietning sohalari yo‘nalishidagi ashelar bilan boyitib, yangi – yangi ilmiy ekspozitsiyalar yarata boshladilar. Ularda turli mavzularda tashkil etilgan ko‘rgazmalar natijasida xalqimizning o‘z tarixi va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishlari ortib bordi.

Muzeylar bilan yeshlarni qiziqtirish maqsadida ular bilan izlash, to‘garaklarda, ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish kabi rejalar amalga oshirildi. O‘zbekistondagi muzeylarning rivojida, ayniqsa, taniqli olimlarning M.E. Mironov, I.A. Suxarev, M.E. Masson, N.P. Ostromov, I. V. Anichkov, Ya. G. G‘ulomov, Yakubovskiy larning hissasi salmoqlidar<sup>3</sup>. Yurtboshimiz tashabbusi bilan so‘nggi yillarda milliy ma’naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanaetgan qo‘lezmalarini o‘rganish, mavjud nusxalarini yurtimizda olib kelish, atroflicha tadqiq qilib xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston jamiyatnining hozirgi rivojlanish bosqichi milliy madaniyat tarixi kontekstida madaniy merosni o‘rganish va asrab-avaylash muammolariga va ularning faoliyatini o‘rganish, shuningdek, turli ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqalarni tiklash bilan ham bog‘liqdir.

1917 yil bolshiviklarning davlat to‘ntarishidan so‘ng 1918 yildan boshlab xonlarning saroy kolleksiyasi muzeylar milliylashtirildi. Hamda davlat mulki deb e‘lon qilindi. Yangi davlatning boshqaruvi tizimi badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatbaho buyumlarni aniqlash, ularni ro‘yhatga olish muhofaza qilish uchun mutaxasislardan komissiyalartuzildi, ularning fikricha, bu tashkilot madaniy merosni saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi.

Muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi 1918-1920 yillarda butun hudud bo‘lib yaratildi. Muzeylarning boshqaradigan yagona tashkilotning tuzilishi muzeishunos arboblarning istak va fikrlarining amalga oshishi bo‘ldi. Bu tashkilot RSFSR Maorif xalq komissarligi qoshida tuzilib, uning ishida madaniyat arboblari, muzey xodimlari san’atshunoslar, rassomlar (I.E. Grabar, R.R. Muratov, N.G. Mashkovsev va boshqalar) faol ishtirop etadi. 1918-1927 yillari muzey ishi, san’at va qadimgi yedgorliklarni muhofaza qilish bo‘limini N.I. Troskaya boshqaradi. Maorif xalq komissarligi

<sup>3</sup> Массон М.Е. Монетные на ходкимв средней Азии. 1917-1922 г.г. «Известия Средазкомстариса» Вып. XXX.-Ташкент, 1928.-С.25. Остроумов Н.П. и Аничков И.В. при участии студентов императорского Санкт Петербурского университета.- Ташкент, 1900.-С.19.Массон М.Е., Якубовский А.Ю. Образы старого Самарканда. «Известия Средазкомстариса». Вып XXX. – Ташкент, 1928.- С. 23. Описание археологической и нумизматической коллекций, принадлежащий Ташкентскому музею и Туркестанскому кружку археологии. Составители:, Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте. «Известия Средазкомстариса» Вып. XXX.- Ташкент, 1928. С.7. Сухарев И.А. Современное состояние и очередные задачи музеиного строительства в Узбекистане // Советский музей. 1933. № 2. Я. Фуломов. Узбекистонда моддий маданий едгорликларни саклаш ва ўрганиш йўллари.-Тошкент,1934.-№2.-С.13.27

rahbarligida mahalliy sovetlar xalq maorif bo'limlari qoshida muzey ishini boshqarish tashkiloti tuziladi<sup>4</sup>.

O'zbekiston hududidagi tarixiy madaniy yedgorliklar 1917 yildan boshlab davlat muhofazasiga olindi, 1921 yilda muzey ishlari qadimiy memoriy obidalarni tabiat va san'at yedgorliklarini saqlash bo'yicha Turkiston komiteti (Turkkomstaris) tuzildi. Ushbu tashkilotni tuzishdan maqsad, tarixiy madaniy obidalarni saqlash va ta'mirlash ishlariga ilmiy yondashuv munosabatida bo'lishdan iborat edi<sup>5</sup>.

"1932 yilda Muzey ishlari, qadimiy me'moriy obidalarni tabiat va san'at yodgorliklarini saqlash Markaziy Osie tashkiloti, 1933yilda yodgorliklarni muhofaza qilish komiteti tuzildi."<sup>6</sup> Yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi memoriy uslublarni to'laqonli badbiq etish va yuksak darajada ta'mirlash ishlarini bajarishimkoniyatini bermas edi.

Dastlab muzeylar faqat "nozik didlilar" uchun bo'lsa, so'ngra aholining barcha qatlamlari uchun barobar ochiq bo'lib qoldi. 1946 – yilda muzey olamida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeа yuz berdi. Amerika Muzeylari Assotsiatsiya Prezidenti Chonsi Xemlin tashabbusi bilan Parijda IKOM (International Council of Museums) nomi bilan mashhur bo'lgan Muzeylar Xalqaro Tashkiloti tuzildi.

XX asr ohiriga kelib, IKOM imkoniyati chegaralangan odamlarga ko'proq e'tibor qarata boshladi. 1988-yilda Fransiyada YuNESKO fondi bilan hamkorlikda "Muzey va nogironlar" mavzusida Birinchi Xalqaro konferensiya uyushtirildi. Unda imkoniyatlari chegaralangan tomoshabinlar uchun alohida muzeyda nogironlar aravachasida bemalol yurish uchun zallar, yuqori qavatlarga ko'tarilish uchun passajirlar lifti, mahsus tayerlangan hodimlar turli nogironlari bor odamlarga, yani karlar va eshitish qobiliyati past bo'lgan tomoshabinlarga belgilar va harakatlar orqali ekskursiyalar o'tishi, ko'rilar uchun predmetlarni xis qilishni qo'llash hamda Braul shriftida ahborotni taqdim etish va shunga o'xshash qator qulayliklar yaratish ko'zda tutilgan.

1977 – yilda Moskva shahrida o'tgan IKOM Bosh Assambliyasida Xalqaro muzeylar kunini nishonlash to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 1977- yil 18- maydan buen har xil "Xalqaro muzeylar kuni" nishonlanib, shu kuni butun jahonda muzey va galereyalarga kirish bepul bo'ladi<sup>7</sup>. Muzeylarda bayram tadbirlari bir kun yeki bir haftagacha davom etishi mumkin. Natijada muzeylar insonlar orasida tinchlik va hamkorlik, madaniyatini boyitish va

<sup>4</sup> Музейное дело России/ Под общий редакцией Каулен М. Е., Коссовой И. М., Сундиевой А.А.-Москва:Издательством «ВК», 2003.-С.130.

<sup>5</sup> Пугаченского Г.А. Вклад ученных Узбекистана в изучение архитектурного наследия республики // строительства и архитектура Узбекистан. 1973. №7.-С.2.

<sup>6</sup> Юсупова М.А. Актуальные проблемы реставрации памятниках архитектуры.//

<sup>7</sup> [https://ru.Wikipedia.Org/wiki/Международный совет музеев](https://ru.Wikipedia.Org/wiki/Международный_совет_музеев).

hamjihatlikning rivojlanishida eng muhim madaniy aloqa vositasidan biriga aylandi". Xalqaro muzeylar kuniga muzey xodimlari doimiy tomoshabinlari bilan noan'anaviy muhitda uchrashuvlariga va yangi auditoriyani jalg qilish uchun ajoyib imkoniyatlarni yaratadi.Buning natijasida muzeylar jamiyat haetida o'z o'rinalariga ega bo'ladilar.

Yurtimizdagagi tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari adabiyot, tasviriy va amaliy san'at asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatiga ega bo'lgan majmualar ilmiy tadqiqot ob'ektlari sifatida muhofaza etiladi. Chunki, madaniy meros ob'ektlari- ajododdalar avlodlarga qolgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmui bo'lib, jamiyat taraqqietining muayyan bosqichidan hikoya qiluvchi manba sifatida qadrlidir. Turizm esa mamlakatlar va xalqlar tarixi bilan tanishishning muhim yo'nalishi bo'lib, saehat qilish turli madaniyat va an'analar bilan tanishish inson ma'naviyatini boyitadi.

O'zbekistonning Buyuk Ipak Yo'li chorrahalarida joylashgan Samarqand Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlari muzey qo'riqxonalaridagi madaniy majmualar minglab sayehlarning e'tiborini tortdi. Ularda saqlanaetgan tarixiy-madaniy yedgorliklarni asrab avaylash insoniyat madaniy merosini saqlash va muhofaza qilishdagi xalqaro, davlat va jamoatchilik tadbirlari tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzey so'zi grekcha "Museon"bo'lib, muzalarga bag'ishlangan joy, makon degan ma'noni anglatadi. Boshqa ma'nosi esa, "ruhlantiruvchi" deganidir. Shuning uchun muzeishunos va tashrifchi munosabatlari 2000 yillik tarixni o'z ichiga oladi. Qadimda tashrifchilar madaniy hordiq uchun muzeyga kelgan. Muzey xodimi esa tashrifchilar uchun hamma ishni ideal holatda tashkillashtirilgan.

Bugungi kunda muzeyga turlicha munosabatlar mavjud. Xorijiy mutaxasislar fikricha, muzey atamasi – favqulodda ancha murakkab tushuncha bo'lib, unga tugal, munozarasiz va hammasi qanoatlashtirilgan ta'rifni berish qiyin. Ko'pgina davlatlar qonunchilik yeki o'zlarining milliy tashkilotlari doirasida muzey tushunchasini o'rnatishgan.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining " Muzeylar to'g'risida"gi Qonunida muzeyga quyidagicha ta'rif berilgan: "Muzey- muzey ashelari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi"<sup>8</sup>.

Bugungi kunda ko'pchilik tomonidan tan olingan "professional muzey" tushunchasi Muzeylar Xalqaro kengashi (IKOM) ning 2007 – yilda qabul qilingan nizomiga binoan: "Muzey – bu inson va atrof- muhitining moddiy va nomoddiy dalillarni ta'lif va ma'naviy hordiq chiqarish maqsadlarida to'plash,

<sup>8</sup> Ключевые понятия музеологии /Сост.Andre Desvallees i Francois Mairesse.-ИКОМ России, 2012

saqlash, tadqiqot va targ'ibot qiluvchi hamda omma uchun ochiq bo'lgan, jamiyat va uning taraqqieti uchun doimiy asosda faoliyat yurituvchi notijorat muassasa". 1974 yilda tasdiqlangan nizomga esa: "Muzey -bu inson va atrof-muhitning moddiy dalillarini ta'lif va ma'naviy hordiq chiqarish maqsadlarida to'plash, saqlash, tadqiqot va targ'ibot qiluvchi hamda omma uchun ochiq bo'lgan, jamiyat va uning taraqqieti uchun domiy asosda faoliyat yurituvchi notijorat muassasa"(IKOM, Nizom, 1974)<sup>9</sup>. Shu dalillar asosida muzey tushunchasi ommalashdi.

Yurtimizda 1997 - yilda Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi hamda muzey xodimlarini hamkorlikda olib borgan faoliyatlar natijasida "O'zbekiston muzeylar kengashi" tuzildi va u 1997-yil 17-iyunda Yunesko tarkibida faoliyat yuritadigan Xalqaro muzeylar Kengashining Ijroiya qo'mitasi tomonidan Xalqaro muzeylar hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Bugungi kunda barcha muzeylar Madaniyat va Turizm vazirligining Madaniy meros agentligiga bo'ysunadi.

Muzeeyshunoslik yani muzeologiya – muzeylar tarixi, ularning ijtimoiy vazifalari, muzey ishi nazariyasi va metodikasi masalalarini o'rganadigan fan tarmogi. Muzey tizimida muzey ishi nazariyasi, muzey ishi tarixi (muzey tarixshunosligi bilan), muzey manbashunosligi, muzeylar va muzey tadqiqotlari faoliyatiga doir barcha o'ziga xos tomonlarni o'rganuvchi ilmiy metodika kiradi. Shuning uchun muzeylarda muzey buyumlarini jamlash, muzeyga keluvchilarni o'rganish jaraenida dala tadqiqotlari usullari va bevosita muntazam kuzatuv ishlari, ijtimoiy usullarni qo'llaydi.

Muzeyning boshqa fanlar bilan har tomonlama uzviy bog'liqligi uning ob'ektiv jihatdan murakkabligini belgilaydi. Muzey ham ijtimoiy, ham tabiiy fanlar bilan birdek bog'liq, ayniqsa, muzeyning mavzuyiga oid fanlar va yerdamchi fan sohalari: tarix, arxeologiya, geologiya, etnografiya, adabietshunoslik, zoologiya, san'atshunoslik va boshqalar) bilan umumiy tomonlari ko'r.

Muzeyda faoliyat yuritadigan mutaxasis tabiat va jamiyatni o'rganish bilan uzviy bog'liq bo'lgan manbalarni jamlash, muzey buyumlarini ilmiy hujjatlashtirish, o'rganish va saqlash, ekspozitsiya va ko'rgazmalarni tashkil etish, ilmiy-ma'rifiy, g'oyaviy va tarbiyaviy faoliyati namoen bo'ladigan

ijtimoiy vazifalar ustida tadqiqotlar olib boradi. Ular muzeylarni to'ldirish, yedgorliklarni hisobga olish, saqlash va restavratsiya qilishning ilmiy tamoyillarini ishlab chiqadilar.

<sup>9</sup>Ключевые понятия музеологии/Сост.Andre Desvallees i Francois Mairesse.-ИКОМ России, 2012

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

Muzey sohasidagi izlanishlar yirik muzeylar, ta'mirlash ustaxonalarini va ilmiy tadqiqot institutlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun xalqaro miqjesida muzey ishini muvofiqlashtirish va tajriba almashish ishlarini bizning mamlakatimizda YuNESKO qoshidagi “O'zbekiston muzeylar kengashi” amalga oshiradi. Shuningdek, sohani yanada rivojlantirish uchun jahondagi ko'plab mamlakatlarda muzey masalalariga bag'ishlangan jurnallar chop etiladi. YuNESKO ning “Museum” jur.va boshqalar ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar, kafedralar faoliyat yuritadi.

Muzeylar tarix va bugungi mijoz va tashrifchi shaklida bir joyga mujassam etgan haqiqat va ishonchni tarannumetuvchi maskandir. Muzey xodimlari esa muzey xavfsizligini ta'mirlash uchun har xil sharoit yaratadi va uning yechimini topadi. O'rta asrda muzey so'zi antik olamning an'analarini saqlaydigan joyni anglatgan. Keyinchalik muzey deb, antik yedgorliklar to'plami va san'at asarlariga, keyinchalik tabiat olamining namunalarini va barcha noeb, narsalarga aytilgan bo'lsa, XVI asrning ikkinchi yarmida kelib, “Muzey” termini nafaqat buyumlar to'plamiga, balki ular saqlanayotgan, ilmiy o'rganiladigan va namoyish etiladigan binoga nisbatan qo'llaniladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng muzeylar ahamiyatini anglab zamon ruhi va andozasi asosida milliy mafkuraga javob beradigan: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi hamda bir qancha davlat muzey maskanlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birin-ketin chiqarilgan qarorlari asosida faoliyatidagi vazifalar aniq belgilab berildi. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi uchun Vatanimizning harbiy sohadagi tarixiga oid yedgorliklarni to'plash, tadqiq etish va saqlash, ulardan harbiy xizmatchilar va aholini, ayniqsa yesh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanishni zamon talablari darajasida tashkil etish vazifalari belgilangan.

Muzey fondlarini to'ldirish maqsadida, turli ilmiy ekspozitsiyalar tashkil etiladi. Ularda yig'ilgan tarixiy ashelardan fanda foydalanish uchun dastlab ularga ilmiy pasport tayerlab, keyin ilmiy tadqiq etiladi. Ekspozitsiyalardan to'plangan ma'lumotlarni mutaxasislar tomonidan sinchkovlik bilan pasportlashtirish navbatdagi zaruriy bosqich bo'lib, bunda buyumlar, ya'ni to'plangan materiallar haqidagi ma'lumotlar bekamu-ko'st kengroq yeritilib, ularga sharhlar, topilgan buyumlar nomi yeki ko'rinishi, o'lchami, saqlanishi darjasasi, tavsifi kabilar yeritiladi. Ilmiy pasportlarni yezilishi va ularni to'planishi natijasida ilmiy kataloglar tayloranadi.

Muzeylarning eng asosiysi va zaruriyi ijtimoiy vazifalardan biri ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdir. Juda ko'p ilmiy tadqiqot institutlaridan farqli ravishda muzeylarning ilmiy tadqiqot ishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega.Uning o'ziga xosligi asosan shundaki ,muzeyda olib boriladigan ilmiy

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

tadqiqotlar juda keng tarmoqli bo'lib, o'z navbatida uning natijalari sohalar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni;
2. 2008 yil 12 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi muzeylari to'g'risida"gi qonun;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktyabrda qabul qilingan "Muzeylar faoliyati bo'yicha me'yoriy hujjatlarni qabul qilish to'g'risida"gi qarori;
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022 – y., 06/22/52/0029– son O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 12 sentyabrdagi "Muzeylar to'g'risida"gi O'RQ – 177– son Qarori //Qonunchilik ta'limotlari milliy bazasi, 09.12.2021-y., 07/21/36/1143– son.
5. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi arxivi.